



AHMAD YASSAVIY VA YUNUS EMRO SHE'RLARIDA MUSHTARAK G'OYALAR

Azizova Madina Muhiddin qizi,

Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi



COMMON IDEAS IN THE POEMS OF AHMAD YASSAVI AND YUNUS EMRO

Azizova Madina Muhiddin kizi,

Teacher at the International Innovation University in Karshi



ОБЩИЕ ИДЕИ В СТИХАХ АХМАДА ЯССАВИ И ЮНУСА ЭМРО

Азизова Мадина Мухиддин кизи,

Преподаватель Международного инновационного
университета в Карши

E-mail:

madinaazizovaa1994@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-5297-1532>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tasavvuf adabiyotining ikki buyuk ustuni – Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik, til xususiyatlari va insonparvarlik tamoyillari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada Yassaviy boshlab bergan "Hikmat" an'anasi Yunus Emro ijodida qanday badiiy shakl va mazmun kasb etgani ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Yassaviya tariqati, "vahdat ul-vujud", suluk, Yassaviylik, Tasavvuf, Hikmat, Ilohiy ishq, Turkiy til, Komil inson, Ma'naviy silsila, Gumanizm.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the ideological commonality, linguistic features, and humanistic principles in the works of two great pillars of Turkish mystical literature - Khoja Ahmed Yassavi and Yunus Emro. The article scientifically substantiates the artistic form and content of the "Hikmat" tradition initiated by Yassavi in the works of Yunus Emro.

Keywords: Yassawiya order, "wahdat ul-wujud", leech, Yassawiya, Sufism, Wisdom, Divine love, Turkish language, Perfect person, Spiritual chain, Humanism.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ идеологической общности, языковых особенностей и гуманистических принципов в произведениях двух великих столпов турецкой мистической литературы — Ходжи Ахмеда Яссави и Юнуса Эмро. В статье научно обосновывается художественная форма и содержание традиции «Хикмат», заложенной Яссави, в произведениях Юнуса Эмро.

Ключевые слова: орден Яссавия, «вахдат уль-вуджуд», пиявка, Яссавия, суфизм, мудрость, божественная любовь, турецкий язык, совершенная личность, духовная цепь, гуманизм.

Kirish. O'rta Osiyo, xususan, yurtimizning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti tarixiga nazar solsak, shaxsiyati betakror va bemisl insonlar juda ko'p bo'lganini ko'ramiz. Turkiy dunyo



ma'naviyatini bir butun holatda tasavvur etsak, uning ildizi Turkistonda – Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohida, shoxlari esa Onado'lida (Anatoliya) – Yunus Emro she'riyatida barq urganini ko'ramiz. XII asrda Yassaviy tomonidan ekilgan ma'rifat urug'lari XIII-XIV asrlarga kelib Yunus Emro timsolida yirik bir madaniy inqilobga aylandi. Bu ikki siymo shunchaki shoir emas, balki turkiy xalqlarning islomiy dunyoqarashini shakllantirgan, ularning tilini va milliy o'zligini saqlab qolgan buyuk mutafakkirlardir.

Adabiyotlar tahlili. Nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo tafakkuri rivojida muhim o'rin tutgan mutasavvif, "piri Turkistoniy", "Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad" deya e'tirof etilgan Ahmad Yassaviy Yassaviya sulukiga asos soldi va unga ergashuvchi shoirlar silsilasi (Hakim Ota, So'fi Olloyor, Azim Xoja va b.) yaraldi. Yassaviya tariqatida tasavvufiy tafakkurning mag'zi bo'lgan Haqni tanish va sevisgga, Haq jamoliga yetish, "vahdat ul-vujud"ni hosil qilish uchun shariat, tariqat, haqiqat hamda ma'rifat kabi ruhoniylar bosqichlarni bosib o'tish, nafsni yengishga da'vat etiladi. O'z davrida yassaviy maktabi vujudga keladi va "Devoni hikmat" qo'lyozma nusxalarida uning a'zolarining ismlari keltirilgan. Ular taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra 45 nafarni tashkil etgan. Bu ta'limot Turkistondan boshqa hududlarda ham aks-sado berdi. Xususan, Turkiya Hindiston, Hazar, Eron, Arab yurtlarida Yassaviya suluki izdoshlari paydo bo'ldi. Turkiston – Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalarning oltin ko'prigi bo'lmish Yassaviy izdoshlari (Hoji Bektosh Valiy, Sari Saltuq, Kiyikli Bobo, Hoji Bayram Valiy)ning buyuk vakili Yunus Emrodir. Ahmad Yassaviy o'z shogirdlarini (yassaviy mashoyixlarini) dunyoning turli chekkalariga, xususan, Rum (Anatoliya) diyoriga yuborgan. Ular orasida Hoji Bektosh Valiy alohida o'rin tutadi. Yunus Emro aynan Hoji Bektosh Valiy va uning shogirdi Toptuq Emro dargohida tarbiya topgan. Shu bois, Yunus Emro she'riyatida aks etgan "ishq" va "fano" tushunchalari Yassaviyning "Faqrnoma" va "Hikmat"laridagi g'oyalarning bevosita davomidir.

Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hayot va ijod yo'li ko'plab tadqiq etilgan. Ammo ularning eng birinchisi turkiyalik olim Muhammad Fuod Ko'prili tomonidan jahon ilm ahliga tadqiq etilgan "Turk adabiyotida ilk mutasavvuf" kitobidir. Shuningdek, Mahmud As'ad Jo'shonning "Yunus Emro va tasavvuf" kitobida ham tasavvufiy tushunchalar va mutasavvuf shoir haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Qiyosiy tahlil. Yunus Emro ijodida Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan g'oyaviy hamohanglik mavjud. Xususan, Yunus Emro bir she'rida shunday yozadi:

Shariat, tariqat yo'ldir yo'lgiga,
Haqiqat, ma'rifat andin ichkari.

Ushbu misralarda Yunus Emro Yassaviy sulukidagi shariat, tariqat, haqiqat, ma'rifat bosqichlarini aynan keltirgan.

Tasavvufning asosi bo'lgan Ilohiy ishq har ikki shoir ijodida markaziy o'rin tutadi.

Ahmad Yassaviy yozadi:

"Ishqing qildi shaydo meni, jumla olam bildi meni,
Qayg'um Sening O'zing bo'lding, menga Sen kerak, menga Sen."

Yunus Emro esa deyarli bir xil ohang va mazmunda javob beradi:

"Ishqing oldi mendan meni, menga Sen keraksan, Sen,
Jismim yonur kecha-kunduz, menga Sen keraksan, Sen!"



Bu o'xshashlik tasodifiy emas. Har ikki shoir ham dunyo matohlaridan, nafsdan kechish, "Men"likdan qutulib, "Haq"qa yetishish g'oyasini bir xil ruhiyat bilan kuylashgan. Ular uchun din quruq aqidalar emas, balki qalbning Ilohga bo'lgan cheksiz muhabbatidir.

Yassaviy va Yunus Emro ijodidagi eng katta hamohanglik ularning tilga bo'lgan munosabatidir. Ahmad Yassaviy: Islom falsafasi asosan arab va fors tillarida bayon qilinayotgan bir davrda, turkiy tilda "Hikmat"lar aytdi. Uning "Turkiy tilin ma'nisin bilganlarga ayta ko'r" degan xitobi o'sha davr uchun jasorat edi. Yunus Emro: U ham Onado'lida fors tili adabiy til hisoblangan bir paytda, sof turk tilida ijod qildi. Uning tili shunchalik sodda va ravon ediki, buni "Sahl-i mumtani" (oddiy ko'ringan, lekin takrorlash qiyin bo'lgan uslub) deb atashadi. Har ikki ijodkor ham murakkab ilohiyot masalalarini xalq tushunadigan tilda bayon etib, turkiy tilning saqlanib qolishiga va rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shishdi.

Sharq islom adabiyotida Tangri taoloni Do'st obrazi orqali vasf etish an'anasi mavjud va bu an'ana natijasida badiiyatning nodir namunalari yaratilgan. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida bu obrazning mana bunday talqini kuzatiladi:

Do'st tilagan ul bo'stonda qaror qilmas,
Haqiqatlik oshiqdari ishqsiz bo'lmas.
Ko'ngul mulkin bersa anga ko'zga ilmas,
Taqqo qilur ichar nabot sharbatinda.

Do'st tilamoq — Haq taolo muhabbatini da'vo qilmoq ma'nosida. Sultonu-l-orifin fikricha, ishqsiz bu maqsadga erishib bo'lmaydi. Do'stning visoliga muyassar bo'lmoqning yagona yo'li ko'ngil mulkini Unga berish va taqqo qilmoqdir.*

Mening tilim qush tilidur,
mening qo'lim Do'st qo'lidur,
Men bulbulman, Do'st gulimdur,
biling, gulim so'lmas mening.

Ul Do'st menga kelsin demish,
sundim qadah, olsin demish,
Oldim qadah, ichdim sharob,
endi ko'nglim o'lmas mening!

Yunus Emro she'rida solikning ko'nglini Do'stga butunlay bag'ishlash holati tasvirlangan. Tili qush tiliga, qo'li do'st qo'liga aylanishi, Do'st gul bo'lsa, o'zining bulbul ekani bilan bog'liq talqinlar Haq taologa muhabbat tuyg'usi ohorli badiiy talqin etilgani bilan qimmatlidir. Haqiqiy Do'st qo'lidan ishq sharobini ichgan oshiq ko'ngli o'lmasligi, doimiy barhayotligi bilan bog'liq qarashlar shoir she'rining irfoniy-badiiy ahamiyatini yuksaltirib yuborgan.

Yassaviy va Yunus Emro falsafasida Inson – eng oliy qadriyat. Ular insonni kamsitishni, kibrni va dilozorlikni eng katta gunoh deb bilishgan.

Yassaviy: "Sunnat emish, kofir bo'lsa, berma ozor, Ko'ngli qattiq dilozordan Xudo bezor." Bu misralar bag'rikenglikning (tolerantlik) eng yuqori cho'qqisidir.

Yunus Emro: "Bir kez ko'ngil yiqding esa, bu qilgan namoz emas, Yetmish ikki millat ham yuzin yuvsa, pok bo'lmas." Ya'ni, bir insonning qalbini og'ritgan odamning ibodati ham qabul bo'lmasligini uqtiradi.



Ular "Yetmish ikki millatni bir ko'z bilan ko'rish" (Insoniyatni ajratmaslik) g'oyasini ilgari surishgan. Bu esa bugungi kunning globallashuv va madaniyatlararo muloqot muammolariga eng yaxshi javobdir.

Ahmad Yassaviy arab-fors aruzidan ko'ra, turkiy xalq og'zaki ijodiga yaqin bo'lgan barmoq vaznini afzal bildi. Uning to'rtliklari xalq qo'shiqlariga yaqin edi. Yunus Emro ham o'z "Ilohi"larida asosan barmoq vaznini qo'lladi. Bu uslub har ikki shoir asarlarining xalq orasida tez yoyilishiga, xalq xotirasida asrlar osha yashab qolishiga sabab bo'ldi. Yassaviyning "Hikmat"i va Yunusning "Ilohi"si shaklan va mazmunan egizak janrlardir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ahmad Yassaviy va Yunus Emro – bitta daraxtning ikki xil mevasi kabi bir-birini to'ldiradi. Yassaviy Turkistonda ma'naviy poydevorni qo'ygan bo'lsa, Yunus Emro Onado'lida bu binoni yuksak badiiy san'at darajasiga ko'tardi. Ularning ijodidagi hamohanglik – til birligi, din mohiyatini to'g'ri anglash va eng muhimi, Insonni sevisht tamoyiliga asoslanadi. Bugungi kunda bu ikki mutafakkir merosini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi (birlashishi) uchun ham hayotiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lilić, P., & Bratoz, S. (2019). The Effectiveness of Using Games for Developing Young Learners' Grammar Competence. *ELOPE: English Language Overseas Perspectives and Enquiries*. Retrieved from <https://journals.uni-lj.si/elope/article/view/8727>
2. Lin, C.-J., Hwang, G.-J., Fu, Q.-K., & Cao, Y.-H. (2020). Facilitating EFL students' English grammar learning performance and behaviors: A contextual gaming approach. *Computers & Education*. DOI: 10.1016/j.compedu.2020.103876
3. Malgazhdarova, D. A., Kenzhetayeva, G. K., & Mirici, I. H. (2024). Application of Communicative Game-based Learning Project "Aengime" for Teaching Grammar EFL Classrooms. *Novitas-ROYAL (Research on Youth and Language)*, 18(2), 131–145. Retrieved from <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1446763.pdf>
4. Qobilova, N. S., & Suyunov, B. S. (2022). Methods of Using Game Activity in Teaching a Foreign Language in Uzbek Primary Classes. *Theoretical & Applied Science*, 108(4). DOI: 10.15863/TAS.2022.04.108.19
5. Qobilova, N. S., Suyunov, J. S., & Suyunov, B. S. (2023). Gamification as a Method of Increasing Motivation of Students of Higher Educational Institutions in Teaching a Foreign Language on the Example of English. *Science and Innovation International Scientific Journal*, 2(2).
6. Suyunov, B. S. (2024a). Analyzing Uzbek Grammatical Structures Through the Lens of Anthropocentric Paradigms. *Philology Matters*, 48(1).
7. Suyunov, B. S. (2024b). The Role of the Directions of the Paradigm of the Anthropocentrism in Modern Linguistics. *Foreign Linguistics and Linguodidactics*, 2(2).
8. Suyunov, B. S. (2024c). The Concepts of Modifier and Post-Modification Structure in English. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6).